

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Mirzaraximova Aziza Azimjanovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18668250>

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda zamonaviy aloqa infratuzilmasini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda bank tizimining real sektorni, xususan, yuqori texnologik va infratuzilmaviy tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarga ko‘ra, tijorat banklari nafaqat kredit beruvchi institut, balki iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantiruvchi strategik moliyaviy hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ayniqsa, infratuzilmaviy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bank tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Aloqa va aloqa tarmog‘i zamonaviy iqtisodiyotning asosiy infratuzilmaviy segmenti bo‘lib, yuqori kapitallik darajasi, texnologik murakkabligi va tezkor innovatsion yangilanish zarurati bilan tavsiflanadi. Ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishi keng polosali internet tarmoqlarini kengaytirish, 5G texnologiyalarini joriy etish, ma‘lumotlarni qayta ishlash markazlarini tashkil etish va raqamli xizmatlar ko‘lamini oshirish kabi yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni talab etadi. Mazkur jarayonlarda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan uzoq muddatli kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, mazkur moliyalashtirish investitsion jarayonlarni jadallashtiradi va infratuzilmaviy loyihalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, aloqa infratuzilmasining rivojlanishi boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligini oshirib, multiplikativ ta‘sir yuzaga keltiradi. Uchinchidan, bank resurslari hisobiga moliyalashtirilgan raqamli loyihalar yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar sifati va hajmini oshirish hamda hududiy rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tijorat banklari uchun aloqa sohasini moliyalashtirish yuqori risk darajasi, uzoq investitsion sikl va kapital sig‘imining kattaligi bilan bog‘liq murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bu holat bank risk-menejment tizimini takomillashtirish, innovatsion loyihalarni baholash metodologiyasini rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiyalashni talab etadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish nafaqat alohida tarmoq rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu jarayonning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish omillarini aniqlash hamda bank tizimi va real sektor o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining aloqa infratuzilmasini moliyalashtirishda qo‘llaydigan asosiy instrumentlar - bank kreditlari (komerciyal va sindikatlashgan), lizing operatsiyalari, obligatsiyalar emissiyasi va loyihaviy («non-

recourse»/«limited-recourse») moliyalashtirishdir. Shuningdek, xususiy sektor investitsiyalarini jalb etishda xalqaro moliya institutlari bilan birgalikdagi kofinansirovka (blended finance) va eksport kredit agentliklari faoliyati ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillar hisobotlari infratuzilma loyihalariga xos «de-risking» mexanizmlarining (kafolatlar, sug'urtalar, strukturaviy garovlar) kengayganini qayd etadi.

Aloqa sohasi tarmog'ining empirik tahlili N.M. Rozanova va D.A. Bulichenko ishlarida yoritilgan bo'lib, mualliflar mahsulot differensiasiyasining turli potensial yo'nalishlarini o'rganish asosida mazkur tarmoq tabiiy oligopoliyaning shakllanishi va evolyutsiyasi mexanizmini yaqqol namoyon etishini aniqlaganlar. Biroq ularning tadqiqoti asosan tarmoq effektlarini tahlil qilish va bozor shaklini aniqlashga qaratilgan bo'lib, sohaning shakllanishi va faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur o'rganishga yo'naltirilmagan. Aloqa sohasi tarmog'idagi alohida kompaniya hamda bozorning umumiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar majmuini tashqi va ichki omillarga ajratish mumkin. E. R. Yescombe loyiha moliyalashtirishni infratuzilma va kapitalli tarmoqlarni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, aloqa kabi yuqori kapital sig'imli tarmoqlarda banklar kreditni qarz oluvchining umumiy balansiga emas, balki loyiha generatsiya qiladigan pul oqimlariga asoslab baholaydi. Bu yondashuv risklarni taqsimlash va kreditni strukturaviy jihatdan himoyalash imkonini beradi.

Shuningdek, S. Gatti banklarning loyiha moliyalashtirishdagi rolini chuqur tahlil qilib, kredit riskini kamaytirishda sindikatlashgan kreditlar va kafolat mexanizmlarining ahamiyatini asoslab beradi. Uning ta'kidlashicha, aloqa loyihalarida texnologik risk va talab riskini puxta baholash bank qarorlarining markaziy elementi hisoblanadi. Aloqa va aloqa sohasi yuqori texnologik va kapitallashgan tarmoq bo'lib, uning rivojlanishi katta hajmdagi uzoq muddatli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Biroq mamlakat banklari tomonidan mazkur sohani moliyalashtirish jarayonida bir qator tizimli va institutsional muammolar mavjud.

Aloqa va aloqa sohasi zamonaviy iqtisodiyotning strategik infratuzilmaviy tarmog'i hisoblanadi. Mazkur sohaning rivojlanishi raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, raqamli to'lov tizimlari va sanoatning raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Biroq mamlakat banklari tomonidan ushbu sohani moliyalashtirish jarayonida bir qator tizimli, institutsional va moliyaviy muammolar mavjud bo'lib, ular investitsiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tijorat banklari aloqa sohasini moliyalashtirishda asosiy moliyaviy institut sifatida faol ishtirok etayotgan bo'lsa-da, mazkur jarayonda qator tizimli va institutsional muammolar mavjud.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati¹

Iqtisodiy ahamiyat yo'nalishi	Mazmuni	Makroiqtisodiy ta'siri	Bank tizimi uchun ahamiyati
Investitsion faollikni oshirish	Aloqa infratuzilmasi va raqamli	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ortadi	Uzoq muddatli kredit portfeli kengayadi

¹ Muallif ishlanmasi

	loyihalarni moliyalashtirish		
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish	Internet, 5G, ma'lumotlar markazlari kabi loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Iqtisodiyot tarmoqlarida samaradorlik oshadi	Innovatsion moliyalashtirish tajribasi shakllanadi
Multiplikativ iqtisodiy ta'sir	Aloqa infratuzilmasi boshqa tarmoqlar rivojiga xizmat qiladi	Yalpi ichki mahsulot o'sishiga hissa qo'shadi	Real sektor bilan integratsiya kuchayadi
Yangi ish o'rinlari yaratish	Raqamli xizmatlar va IT loyihalar rivoji	Bandlik darajasi oshadi	Ijtimoiy mas'uliyatli bank imiji mustahkamlanadi
Hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash	Chekka hududlarda internet qamrovini kengaytirish	Raqamli tenglik ta'minlanadi	Mijozlar bazasi kengayadi
Kapital bozorini rivojlantirish	Obligatsiyalar va loyiha moliyalashtirish instrumentlari	Moliyaviy infratuzilma mustahkamlanadi	Banklarning investitsion faoliyati kengayadi
Soliq tushumlarini oshirish	Aloqa kompaniyalari daromadlarining o'sishi	Davlat byudjeti daromadlari ortadi	Bank operatsiyalari hajmi oshadi
Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish	Yuqori texnologik va startap loyihalarni moliyalashtirish	Texnologik modernizatsiya tezlashadi	Risk-menejment va tahlil tizimi takomillashadi

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini jadallashtiruvchi muhim moliyaviy omil hisoblanadi. Aloqa va telekommunikatsiya infratuzilmasi yuqori kapitallik darajasi hamda uzoq investitsion siklga ega bo'lib, uning rivojlanishi barqaror va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bank kreditlari va loyiha moliyalashtirish mexanizmlari infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda asosiy moliyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish, raqamli xizmatlar ulushini oshirish hamda 5G, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari va keng polosali internet tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlarini tezlashtiradi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va multiplikativ iqtisodiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, aloqa sohasini moliyalashtirish banklar uchun yuqori texnologik, investitsion va bozor risklari bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli kredit resurslarining

yetishmasligi, innovatsion loyihalarni baholash metodologiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda risk-menejment tizimining takomillashuv zarurati mazkur yo‘nalishda tizimli islohotlarni talab etadi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish nafaqat tarmoq rivojlanishiga, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o‘shishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon bank tizimi va real sektor o‘rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish orqali yanada samarali natija beradi. Uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish. Tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarini oshirish maqsadida infratuzilmaviy obligatsiyalar, sindikatlashgan kreditlash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish. Telekommunikatsiya loyihalarini pul oqimlari asosida baholash (cash-flow based lending) amaliyotini kengaytirish va risklarni loyiha ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Risk-menejment tizimini takomillashtirish. Texnologik, valyuta va talab risklarini chuqur baholash, sug‘urta va kafolat mexanizmlarini keng qo‘llash, kredit portfelini diversifikatsiyalash bank barqarorligini oshiradi. Innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish. Raqamli obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish va blended finance mexanizmlaridan foydalanish telekommunikatsiya loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy modelini shakllantiradi. Bank va IT sektori o‘rtasida institutsional hamkorlikni kuchaytirish. Innovatsion loyihalarni baholash bo‘yicha ixtisoslashgan ekspert guruhlarini shakllantirish va texnologik audit mexanizmlarini joriy etish kreditlash sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash, risklarni samarali boshqarish va institutsional hamkorlikni kuchaytirish orqali mazkur yo‘nalish mamlakatning raqamli iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020.
2. Rozanova N.M., Bulichenko D.A. [Competition in the telecommunications industry: the network market and product differentiation]. TERRA ECONOMICUS, 2011, vol. 9, no. 1, pp. 17-32.
3. <https://worldbank.org/curated/en/> World Bank — *Infrastructure Monitor 2024* (global trends in private infrastructure investment).
4. Yescombe, E.R. (2014). *Principles of Project Finance*.
5. Gatti, S. (2013). *Project Finance in Theory and Practice*.